Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud sanalari nishonlandi

O’zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida Xalqaro Amir Temur jamoat fondi, Respublika “Nuroniy” jamg’armasi, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, V.A. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi bilan hamkorlikda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud sanalariga bag’ishlangan “Temuriylar davrining buyuk siymolari” mavzuida ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo’lib o’tdi.

Tadbirda “Temuriylar davri ilm-fan va madaniyati”, “Ikki buyuk mutafakkir”, “Ulug’ saltanat me’morlari”, “Alisher Navoiy va Kamoliddin Behzod - ma’rifat homiylari”, “Boburnoma”dagi ba’zi tarixiy ma’lumotlar haqida”, “Alisher Navoiy ijodining chet ellarda o’rganilishi”, “Alisher Navoiy ijodida fiqh”, “Temuriylar davrida yoshlar tarbiyasi” kabi mavzularda ma’ruzalar tinglandi. Tadbir doirasida “Kitobxonlik viktorinasi” ham o’tkazildi. Alisher Navoiy va Zahriddin Muhammad Bobur ijodiga bag’ishlangan viktorina g’oliblariga kitob-risolalar berildi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar uchun muzey zallari bo’ylab ekskursiya tashkil etildi.